

AHMAD A'ZAM ASARLARI LINGVOPOETIKASI

Mirzarahimova Zulayho Avazjon qizi
QDPI Boshlang'ich ta'lif kafedrasini o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Ahmad A'zam asarlarining lingvopoetikasi haqida so'z boradi. Uning juda ko'plab asarlari tahlil qilinib, asarlar bosh qahramonlari, ularning umumiyligi va bir-biriga o'xshamagan jihatlari tahlil qilinadi. Shunngdek, maqolada adibning ichki kechinmalari obrazlar timsolida qanchalik mohirlik bilan tasvirlangani hamda adibning bir qancha asarlari lingvopoetik jihatdan tahli qilingan.

Kalit so'zlar: Yozuvchi, timsol, kitobxon, adabiyot, tahlil, mutanosib, muhabbat, nighoh, o'xshashlik, e'tirof.

ЛИНГВОПОЭТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ АХМАДА АЗАМА

Мирзарахимова Зулайхо Авазжон қизи
Преподаватель кафедры начального образования КГПИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается лингвопоэтика произведений Ахмада Азама, одного из ярких представителей современной узбекской литературы. Анализируются многие его произведения, главные герои произведений, их сходства и различия. В статье также анализируется, насколько искусно внутренние переживания писателя представлены в образной форме, а также ряд произведений писателя с лингвопоэтической точки зрения.

Ключевые слова. Писатель, эмблема, читатель, литература, анализ, пропорция, любовь, взгляд, сходство, узнавание.

LINGUOPOETICS OF AHMAD AZAM'S WORKS

Mirzarahimova Zulayho Avazjon qizi
Lecturer at the Department of Primary Education, KSPI

ANNOTATION

This article discusses the linguopoetics of the works of Ahmad Azam, one of the brightest representatives of modern Uzbek literature. Many of his works are analyzed, the protagonists of the works, their commonalities and differences. The article also analyzes how skillfully the writer's inner experiences are represented in the form of images, as well as a number of works of the writer from a linguopoetic point of view.

Keywords. Writer, emblem, reader, literature, analysis, proportion, love, look, resemblance, recognition.

KIRISH

Biror badiiy asar haqida gap ketganda kitobxon ko‘z oldida, eng avvalo, undagi asosiy obrazlar gavdalanadi. O‘quvchining asarni eslab qolishi bevosita shu asardagi obrazlarning qanchalik mahorat bilan tasvirlanganiga bog‘liq. Ilmiy adabiyotlarda obrazga turlicha ta’riflar beriladi. Badiiy obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasidir. Lug‘aviy ma’nosida har qanday aksni bildiruvchi “obraz” so‘zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma’noda qo’llanadi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u badiiy obraz ma’nosida tushuniladi. Badiiy obraz deganda, borliq (undagi inson, narsa, hodisa va h.z.) ning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi.

Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o‘zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik badiiy borliqdir. Xuddi shu hol badiiy obrazni obyektiv va subyektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Ya’ni, bir tomondan, borliqning aksi sifatida badiiy obraz makon va zamonda mavjud bo‘lgan konkret narsadek his etiladi. Ikkinchisi tomondan, u tushuncha, tasavvur, faraz va shu kabi tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

70-yillar adabiy avlodni ichida, shubhasiz, yozuvchi Ahmad A’zamning o‘z o‘rni bor. Ahmad A’zamning “Mas’ul so‘z”, “Soyasini yo‘qotgan odam”, “Hali hayot bor...”, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonaga safar”, “O‘zi uylanmagan sovchi” (roman), “Til nomusi” kabi o‘nlab badiiy, ilmiy va pubblitsistik kitoblari chop etilgan. Tabiiyki, bu asarlarning har biri hozirgi o‘zbek adabiyotining nodir asarlari xazinasidan o‘rin olgan. Chunki Ahmad A’zam o‘z asarlarida so‘zni asrab-avaylab ishlatgan, xalq tili go‘zalliklarini mahorat bilan qo’llagan, shuningdek, o‘zbek xalqining ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy hayotini haqqoniy, teran, nihoyatda nuktadonlik bilan yoritgan bilimdon, betakror yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi.

Adibning adabiy jamoatchilik orasida shov-shuvlarga sabab bo‘lgan “Ro‘yo yoxud G‘ulistonaga safar” romani hamda “Asqartog“ tomonlarda”, “Hali hayot bor...” qissalari, “Oyning gardishi”, “Soyasini yo‘qotgan odam”, “Qatag‘on”, “Go‘zallik qirralari”, “Mastirjamiyat” hikoyalari, “Tugmachagul”, “Gul ko‘tarib ketayotgan erkak”, “O‘zim bilan o‘zim”, “Odamoviga uchyoqlama qarash”, “Vatan haqida yozishga kuchim yetmagan she’rim” kabi novellalarini sanash mumkin. Muallifning o‘nlab badiiy asarlarida bo‘rtib ko‘zga tashlanadigan original badiiy ifoda, qahramonning o‘zini o‘zi tahlil qilishi, o‘zini o‘zi taftish etishi, qahramonning nafaqat atrofga, jamiyatga tanqidiy-kinoyaviy munosabatda bo‘lishi, qahramon xayolida illyuziya yaratish, mozaika asosiga syujet qurishi, ramz va metaforalarga o‘chlik kitobxonni hushyor torttiradi. Bugungi modern o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqul Ahmad A’zam ijodi haqida shunday yozadi: “Bu novellalarda biz o‘zbek nasrida nisbatan yangi qahramon – jamiyatda, hayotda o‘z o‘rnini anglayotgan, anglash orqali uyg‘onayotgan fikr, uyg‘onayotgan o‘zlikni, uyg‘onayotgan “men”ni anglatuvchi qahramon paydo bo‘ldi. Bu novellalarda “men”dan boshqa qahramon yo‘q: ijobi ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu “men”ning o‘zi, ya’ni o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgan odam. Ahmad A’zam

bu obrazi bilan o'zi mansub avlodning butun boshli konsepsiyasini ifodalab berganga o'xshaydi". Bizning e'tiborimizni "o'zi bilan o'zi gaplashayotgan odam obrazi" degan gap jalg etdi

TAHLIL VA NATIJALAR

O'z asarlarida jonli, tirik timsollarni yaratgan, o'ziga xos obraz yaratish mahoratiga ega yozuvchilardan biri Ahmad A'zamdir. Adib o'z qissalarida bir-biriga o'xshamaydigan qator obrazlarni yaratgan. Ma'lumki, har qanday obraz umumlashtirishning, ayni paytda individuallashtirishning ham mahsulidir. Chunki bir davr, bir muhit kishilari ko'plab umumiyligi jihatlarga ega bo'lishi bilan birga har birining inson sifatida o'zigagina xos bo'lgan qirralari ham mavjud. Ana shu umumiyligini va individuallik o'rtasidagi chegarani to'g'ri belgilay olgan ijodkor chinakam mahoratli yozuvchiga aylanadi. Ahmad A'zam bu jihatdan e'tirof etishga munosib adibdir.

Adib qissalaridagi asosiy qahramonlar qator umumiyligi jihatlari bilan birga o'zigagina xos bo'lgan ko'plab belgilarga ega bo'lgan obrazlardir. Xususan, A. A'zam qissalari bosh qahramonlarining hammasi ziyoli odamlar misolida gavdalananadi. "Hali hayot bor" qissasi bosh qahramoni A'lam jurnalist, "Asqartog" tomonlarda" qissasi qahramoni Mahdi Ashrapov olim, "Quroq" qissasi bosh qahramoni ijodkor (muallifning o'zi), "Bu kunning davomi" qissasidagi qahramon-psixolog kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bosh qahramonlarning hammasiga xos umumiyligi jihat ularning barchasi ziyoli, ijodkor insonlar ekanligidir.

Qissalarni o'qish jarayonida kitobxon muallif o'z tabiatini, o'y-xayollarini asosan, bosh qahramonlarga ko'chirganiga guvoh bo'ladi. Ahmad A'zam qahramonlar portretiga asar boshida alohida, batafsil to'xtalmaydi. O'quvchi asarni o'qish davomida qahramonlar qiyofasini ham yaqqolroq tasavvur qila boradi. Qahramonlar qiyofasini, asosan, ularning nutqi va xarakteri gavdalantiradi. Ahmad A'zam qissalari qahramonlari jonli, tirik inson obrazlari deb, bemalol aytish mumkin. Chunki yozuvchi birorta qahramonni yo butkul oppoq, yo qop-qora bo'yoqlarda tasvirlash yo'lidan bormaydi. Ularni barcha insonlarga xos fazilat va kamchiliklari bilan tabiiy ko'rsatadi. Chunonchi, "Bu kunning davomi" qissasi bosh qahramoni xayolan o'zini ustaga, Sobirvoyni qora ishchiga, Avvalboyni choy tashuvchiga qiyos qilib, zavqlanadi. Ammo shu zahotiyoyq Sobir boshlagan "g'iybat" ko'nglini g'ashlaganini his qiladi: negadir odam huzur bilan g'iybat qilasan-u, keyin ko'nglingda juda noxush sezimlar uyg'onadi, o'zingdan-o'zing irgana boshlaysan.[1,53]

Ahmad A'zam qissalaridagi asosiy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Qissalarning nomi	Inson obrazlari	Jonivor obrazlari	Detal-obrazlar
"Asqartog" tomonlarda" qissasi	Ofiyat, Mahdi Ashrapov, Isrofil, Haqberdi, Tangir, Shodi aka	Ayiq	Tog'
"Bu kunning davomi" qissasi	Psixolog, Sobir, Avvalboy, Akobirov, Zuhra, Sulton, Rasulov, Husainov	mushuk	Telefon, tranvay
"Hali hayot bor" qissasi	A'lam, Abduzafar, Xosiyat, Irina, Vazira, Dilorom, Saodat, Zumrad, Gulasal, Habiba, Turdiali, Sojida, Solihboyev Gulimoh,Gulandom,	Eshak	Bo'yoq, hushtak
"Quroq" qissasi	Saidvali, Nosir, Ismoil, Rashid, Vafoqul, Sulton, G'affor, Vosit, Sardor, Fan, Flyura, Eshonxonov, Ismat	Ilon, ot, eshak, it, mushuk	Lug'at

Ahmad A'zam qissalaridagi obrazlar tizimida detallarning alohida o'rni bor. Masalan, "Bu kunning davomi" qissasida yillar davomida izlagan qizini uchratgan va shu qizning qo'ng'irog'ini kutayotgan qahramon telefonga betoqat tikeladi: U, xuddi shu kulrang quti gapirib yuboradigandek, telefonga tikildi. Xona yorug'ida xira tovlanayotgan telefonning sirtida o'sha qizning uni yo'qlamasligini bildiradigan nimadir bordek edi. Ko'rinadiki, bu kulrang quti shunchaki buyum emas, qahramon ruhiy holatini ochib berayotgan muhim detallardan biridir. Buni qahramonning kvartira egasi haqidagi o'yidan ham bilish mumkin: Padarlanatining uyida bir vaqtlar telefon ham bo'lgan, lekin pulni to'lamaganidan keyin uzib qo'yaverishgan, keyin o'zi qo'shnisiga pullab yuborgan. Telefondek ajoyib narsani qo'ldan chiqazgan-a! [1,29]

Kwartira egasi – Vohid qahramonimiz uchun birdan bir umid manbaini, **telefonni** qo'ldan chiqazgan! Bu qahramonning fojiasi ham shundadir balki? Telefon Vohid qalbida so'nib borayotgan umid, hayotga muhabbatning ramzi. Qahramonimiz esa hozircha telefonini qo'ldan chiqazmagan. Vohid bilan uning o'rtasidagi asosiy tafovut, ichib kelib dardi hol qilish asnosida havaslanib gapirishining sababi ham shunda edi. Ko'rinadiki, detal-obrazlar qahramon tabiatini, ruhiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Yozuvchining "Asqartog' tomonlarda" qissasi, "Tugmachagul", "Oyning gardishi", "Qatag'on", "O'zim bilan o'zim", "Vatan haqida yozishga kuchim yetmagan she'r" kabi qator hikoya va novellalarida bosh qahramonning o'zi bilan o'zi gaplashayotganiga guvoh bo'lamic. Ahmad A'zam qahramonlari o'z hayotini va atrofdagilarning hayoti, faoliyatini tahlil etadi, ularga tanqidiy-kinoyaviy munosabatda bo'ladi. Yozuvchi o'zi bilan o'zi gaplashayotgan, o'zi bilan o'zi kurashayotgan, fikrlayotgan, muhokama-mulohaza yuritayotgan kishilar ruhiyatidagi ziddiyatni ko'rsatib berish orqali chuqur psixologik tahlilga erishadi.

Ahmad A'zam hikoyalari orasida "Oyning gardishi" hikoyasi, ayniqsa, o'zining lirik kechinmali talqini, qishloq odamlarining oddiy va sodda hayotini kitobsevar bola tilidan musaffo, bolalarcha til bilan bayon etib berishi bilan o'quvchini hayratlantiradi. Muallif asarlarida oddiy o'zbekona xalqona til yayrab-yashnab turadi. Qahramonlar ham nihoyatda oddiy, sodda, to'pori. "Oyning gardishi" hikoyasi avtobiografik xarakterga ega. Shuning uchun ham hikoya tili nihoyatda samimi va jozibador chiqqan. Hikoyada qari ota, kenja o'g'il, amaki, Mamat mesh kabi obrazlar ishtirok etadi. Hikoyada garchand olim bo'lishni orzu qilib shaharda qolib ketgan katta o'g'il bilan kitobsevar kenja o'g'il obrazlari ikki odam sifatida yoritilgan bo'lsa-da, bu ikki obraz umumiyl holda birlashib, Ahmad A'zamning o'zi ekani haqidagi fikr xayolimizda aylanaveradi.[2,30] Katta o'g'il olim bo'lishni istaydi. Ota o'g'lining ilmiy ish qilaman deb, yigirma yillik umrini kitob, ilm orqasidan quvib yurishni istamaydi. Ota uchun o'g'lining qishloqqa qaytib kelib, mol-hol qilib, yonida suyanchiq bo'lish katta farzand sifatidagi burchidir. Qaysar o'g'il esa professor bo'lish orzusida. Kenja o'g'il otaning dardi-holini, akasi va otasi o'rtasidagi kelishmovchiliklar, mojarolarga guvoh bo'lib turadi. Ich-ichida katta bo'lsa oltmishga kirgan otasining ulkan suyanchig'i bo'lishni orzu qiladi. Akasining xatolarini takrorlamaslikni diliga tugib qo'yadi. Hikoyadagi badiiy vaqt va makon nihoyatda aniq chizilgan. Ota namozshom vaqtida amakinikiga ketadi. Kenja o'g'il otasini olib kelish uchun eshakka minib, amakinig uyiga qarab yo'nga otlanadi. Shom vaqt, chang-to'zonli yo'llar, ayniqsa, qabriston yonidan o'ta turib, yosh bolaning o'takasi yorilay deydi. Ammo bolaning go'zal, yoqimli ovunchog'i bor. Bu osmondaggi gardishli oymomo. Hikoyada Bola va Oymomo,

Gardishli oymomoning oppoq qo'y qamalgan qo'raga o'xshatilishi singari ramzlar, obrazlar hikoyaga o'zgacha lirik kayfiyat baxsh etgan. Bolaning oymomoga mahliyo bo'lib boqishi, uning xayoliy gap-so'zлari, muloqoti, kelajakdagi orzulari, manzilga yetib borish uchun butun kuchini, g'ayratini to'plab, yolg'izoyoq yo'lda mardonavor ketishi barcha-barchasi xalq ertaklari uslubini ham eslatib yuboradi. Hatto yarim yo'lda eshak hurkib ketib, bola eshakdan yiqilib tushadi. Qo'rquv, tahlika bola ruhiyatini ezadi. Ammo yosh bo'lishiga qaramasdan, undagi zakolik, aqlilik ustun keladi.

Bola eson-omon manzilga yetib borib, otasi bilan eshakka mingashib uyiga qaytib keladi. Qaytib kelgach, bola tush ko'radi. Hikoyada bolaning oy bilan bog'liq tushi quyidagicha beriladi: "...U oq qo'yga minib olib, ko'zlarini qamashtirayotgan gardish devorning eshigini axtaradi. Oq qo'y esa tixirliik qilib yurmaydi, bir joyda qotib turaveradi. Pastda otasi qo'lini ipaxsa qilib qichqiradi: "Miyang xatomi sening! Nega oyga minib olding? Yana yiqilib tushib boshimga balo orttirma. Seni ko'tarib do'xtirma-do'xtir chopib yurmayin. Yaxshilikcha tush, deyapman, bo'lmasa, olmaga oyog'ingdan osaman".[3,52] Otasining yonida Orziqul bobo qotib-qotib kuladi: "Ana xolos! Bizni pulisirotdan o'tkazib qo'yadigan qo'yni minib olibsiz-ku! Muallimingizga borib aytmasammi". Mamat mesh eshagidan tushmay otasiga taskin beradi: "Qo'ying, indamang, bolaning o'zi xohlab tushmasa, majbur qilib bo'lmaydi. Ko'p o'qigan-da. O'qimasa oyga chiqarmidi". U hadeb yaraqlayotgan gardish devorning eshigini axtaradi, devor esa uning ko'zlarini qamashtiradi., eshigi esa ko'rinxaydi. Oq qo'y ham tixirlik qilib joyidan siljimaydi. U qo'yni xalachop bilan uradi, qo'yning junlari oyog'iga o'ralashib qoladi. Birdan dimog'iga achqimtil uriladi-yu, uchib ketadi. Otasi esa negadir muloyim ovozda gapirib qoladi: "Ha, nodon bola-ya, yana chiroqni o'chirmabdi..."

Nazarimizda, hikoyada markaziy o'ringa qo'yilgan Bola va Oy obrazlari mana shu yuqoridagi parchada o'zining kulminatsion nuqtasiga chiqadi. Bola tushida oq qo'yni minib olib, qo'radan chiqib ketish uchun urinadi. Lekin eshik topolmaydi, oyning oydin yorug'i, uning ko'zlarini qamashtiradi. Bizningcha, hikoyada oy va qo'tonlagan oy, bola va oq qo'y obrazlari timsolli ramzlarga aylanadi.[4,38] Ya'ni, qo'rg'onlangan oy – biqiq muhit ramzi. Oyning gardishi – jamiyatdagi chegaralangan an'anaviy milliy qadriyatlar ramzi, gardish – cheklanganlik, chegaralanganlik ramzi, oyning qo'tonlashi – bir xil hayot, ijtimoiy tuzumga, an'anaviy milliy qadriyatlarga o'ralishib qolgan o'zbek xalqining hayotiga ramziy ishoralardir. Oq qo'yga minib olib, yo'l topa olmayotgan bola – o'zbek xalqining an'anaviy milliy qadriyatları bilan to'qnashib, o'zi istaganidek katta yo'lga chiqqa olmayotgan odam ramzi. Xususan, bu Katta o'g'il bilan ota ziddiyatida ko'rindi. Ota milliy an'anaviy oilaviy qadriyatlardan voz kechishni xohlamaydi. Katta o'g'il esa tor muhitni yorib chiqib, (mol boqib yurishdan ko'ra muhimroq, ilm o'rganishni) ziyoli bo'lishni orzu qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zam obraz yaratishda o'ziga xos mahoratga ega adibdir. Nazarimizda, Ahmad A'zam boshqa tengdoshlari singari o'z asarlarida ruhi ikkiga bo'lingan shaxs fojiasini teran badiiy talqin etib berishga o'z hissasini qo'shgan jiddiy ijodkorlardan biri. Muallifning qay bir asarini qo'limizga olmaylik, ular chuqur o'ylashga, muhokama qilishga, yangi bir talqinlar topishga yo'l ochadi.

Agar mahoratli adib Ahmad A'zam hayot bo'lganida, bu yil qutlug' 70 yoshni qarshilagan bo'lar edi. Afsuski, takrorlanmas yozuvchi va ajoyib inson Ahmad A'zam bugun oramizda yo'q. Ammo uning badiiy durdonalari kitobxonlar va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgani yo'q. Muallif asarlarining tilsimlarini ochishga yosh tadqiqotchilar bel bog'lashgan. Ahmad A'zam turmush o'rtog'i Farog'at Kamolovaning xotirlashicha, umrining so'nggi nafasigacha yozdi, bir zum bo'lsa-da, yozishdan to'xtamadi, tanasida og'riqlar bezovta qilganida ham u yozishdan to'xtamadi. Yozish, ijod qilish uni hayotga qaytardi, unga kuch berib turdi. Bejizga yozuvchi mana bu jumlalarni bitmagan: "Ko'p ishni qilib ko'rdim, turli yumushga qo'l urdim. Lekin hyech biri yozishga, yozish beradigan mashaqqatli zavqqa teng kelmaydi..."[5,25] Xulosa shuki, Ahmad A'zam yaratgan badiiy asarlar zavq bilan o'qiladi va zavq bilan tahlil etiladi. Muallifning ikkinchi mangu umri hyech qachon zavol topmasin. Yashashda davom etsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A. A'zam. Til nomusi.- Toshkent: Akademnashr,2013
2. A. A'zam. Hali hayot bor...- Toshkent:O'zbekiston, 2011
3. A. A'zam. Bu kunning davomi.www.ziyouz.com
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. 2010
5. O'zbek adabiy tanqidi. Toshkent: Turon-iqbol, 201.